
TASHABBUS KO'RSATING SIZNI QIYNAYOTGAN MAVJUD MUAMMOLARNI HAL ETILISHIDA O'ZINGIZGA O'ZINGIZ YORDAM BERING!



Hurmatli Farg'ona shahrida istiqomad qilayotgan fuqarolar!

Siz istiqomat qiladigan shaharda, aynan sizni qiynab kelayotgan yechimi mablag' bilan bog'liq muammolar mavjudmi?

Siz ushbu muammolarni hal etilishida, aynan shahar byudjet mablag'larini, sizning tashabbusingiz asosida yo'naltirilishi mumkinligidan xabardormisiz?

Endilikda siz tashabbusli budjet jarayonida ishtirok etgan holda, o'z takliflaringizni bildirishingiz yoki sizning ehtiyojlaringizni aks ettirgan boshqa takliflarga ovoz berishingiz mumkin.

Buning uchun siz har yili ikki marotaba o'tkaziladigan "Tashabbusli Byudjet" jarayonida ishtirok etishingiz lozim.

Onlayn ishtirok etish bevosita moliya vazirligining ochiq byudjet axborot portali orqali amalga oshiriladi.

Portalning Web manzili openbudget.uz dan iborat bo'lib, ushbu portalga siz o'zingizning kompyuter, noutbook, planshet yoki mobil telefon qurilmangiz orqali kirishingiz mumkin.

"Tashabbusli Byudjet" jarayonida ishtirok etish uchun siz avval portaldan ro'yhatdan o'tishingiz lozim, bu esa anonim tarzda taklif qoldirish yoki ovoz berish holatlarini oldini olishda juda muhim hisoblanadi.

Ro'yhatdan o'tish jarayonida siz o'z ism sharifingiz, tug'ilgan yilingiz, yashash hududingiz va shu kabi boshqa ma'lumotlarni kiritishingiz, eng asosiysi o'zingiz ishlatadigan telefon raqamingizni ko'rsatishingiz lozim bo'ladi.

Siz quyidagi yo'nalishlar bo'yicha takliflar qoldirishingiz mumkin.

O'z hududingizdagi ichimlik suvining ta'minotini yaxshilash,

Yoritish tizimi bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish,

Yaroqsiz holga kelgan ichki yo'llarni ta'mirlash yoki asfalt yotkizish,

Ijtimoiy soha obyektlarini ta'mirlash, jihozlash yoki moddiy-texnik bazasini rivojlantirish,

umum foydalanishdagi, ya'ni jamoatchilik ihtiyoridagi obyektlarni ta'mirlash yoki jihozlash kabi takliflarni bildirish imkoniyatiga egasiz,

Shuni alohida takidlash lozimki, bildirilgan takliflarni amalga oshirilishining umumiy qiymati 1 mlrd so'mdan oshmasligi lozim

Bildirilgan takliflarga ovoz berish jarayoni o'tkaziladi va bunda siz o'z mahalladoshlaringizdan o'zingiz bergan taklifga ovoz berishlarini so'rashingiz mumkin bo'ladi.

Taklif qoldirish va ovoz berish jarayonlari yakunlariga ko'ra, shaharda eng ko'p ovoz to'plagan takliflar g'olib deb topiladi hamda taklifni amalga oshirish uchun mablag' ajratish yuzasidan qaror qabul qilinadi va ishlar amalga oshirilishi boshlanadi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#)

2021-07-15 11:05:59